



NEMIS TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA QO'LLANILADIGAN INNOVATSION YONDOSHUVLAR

Yusupova Dilnoza O'ktamali qizi

Qo'qon universiteti Jahon tillari kafedrasida dotsenti

E-mail: ydilnoza90@gmail.com

Tel.: +998979409304

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 12-yanvar 2026-yil

Tasdiqlandi: 15-yanvar 2026-yil

Jurnal soni: 17

Maqola raqami: 34

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v17i.1383>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

madaniyatlararo muloqot
kompetensiyasi, etnografizm, ayollar
bayrami, yangi yil, pasxa, hosil bayrami,
mustaqil o'rganish, loyiha darsi, taqdimot,
"Bekat" metodi, birga bajarish kitobi,
Nikolaus oqshomi, Martin kuni.

ANNOTATSIYA

Quyidagi maqola nemis tili darslarida o'quvchilarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirishda qo'llaniladigan innovatsion yondoshuvlar haqida bo'lib, unda o'zbek va nemis urf-odatlari va bayramlarini loyiha usulida o'rganish orqali o'quvchilarning bilim tajribalarini boyitish haqida fikr yuritiladi. Chet til o'rganishda loyiha usuli olingan bilimlarni uzoq vaqt xotirada saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada loyiha darslarining bosqichlari haqida alohida to'xtalib o'tiladi va har bir bosqichda amalga oshirilishi mumkin bo'lgan ishlar batafsil yoritib beriladi. Shu bilan birga maqolada urf-odatlarini "Bekat" larda ishlash usuli orqali o'rganish haqida ham fikr yuritiladi. Urf-odatlarini zamonaviy texnologiyalar asosida o'rganish tili o'rganilayotgan mamlakatning va o'z urf-odatlarini chet tilida o'rganish, dars jarayonini qiziqarli tashkillash va o'tkazish, ularni uzoq vaqt davomida xotirada saqlash imkoniyatlarini yaratadi. Shu bilan birgalikda, milliy qadriyatlar sirasiga kirgan urf-odatlarini o'rganish o'quvchilarda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantiradi.

Kirish. Ma'lumki, urf-odatlarini zamonaviy texnologiyalar asosida o'rganish tili o'rganilayotgan mamlakatning va o'z urf-odatlarini chet tilida o'rganish, dars jarayonini qiziqarli tashkillash va o'tkazish ularni uzoq vaqt davomida xotirada saqlash imkoniyatini yaratibgina qolmasdan balki, milliy qadriyatlar sirasiga kirgan urf-odatlarga nisbatan til o'rganuvchilarda hurmat nazari bilan qarashni ham shakllantiradi. Bu o'z navbatida o'quvchi yoshlarda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini ham shakllantirib boradi. Bugungi kunda chet tillarni o'qitish va o'rgatishda til o'rganuvchilarning mustaqil o'rganishlariga ahamiyat berish kun sayin rivojlanib bormoqda. Yevropa davlatlarida, jumladan Germaniya davlatida ham "Autonomeslernen" ya'ni, mustaqil o'rganish shiori ostida o'quvchi/talabalarning o'qituvchi nazoratidan holi bo'lgan jarayonga e'tibor qaratilmoqda. Shu ma'noda bugungi kunda dars samaradorligini oshirishda xizmat qilishi e'tirof etilayotgan "Bekat"larda ishlash usulini urf-odatlarda ham foydalanish taklifini kiritmoqchimiz. Mamlakatimizda bugungi kunda nafaqat ta'lim sohasida, qolaversa, barcha sohalarida ham raqamli texnologiyalarga katta e'tibor qaratilmoqda. Juda ko'plab ta'lim muassasalari raqamli tizimiga o'tar ekan, tizimining asosiy shartlaridan biri mustaqil ta'lim olish va izlanishlar qilishni shakllantirishdan iboratdir¹.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ushbu maqolada xalqalr madaniyati yoritib berilgan adabiyotlar bilan ishlash, ularni taqqoslash, tahlil qilish kabi metodlardan foydalanilgan, shu bilan birga chet til o'qitishdagi texnologiyalarning yevropa standartlari tilga olingan, xususan Loyiha, Bekatlarda ishlash shular jumlasidandir. Projekt so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib "proicere" loyihalash, rejalash tadbir ma'nolarini anglatadi. Shimoliy Amerika reformpedagogi Villiam Xerd Kilpatrick (1871-1895) va Jon Devilar (1859-1952) loyiha asosida ishlashni pedagogik asoslarini ishlab chiqqanlar. Loyiha darslarning eng asosiy xususiyati shundan iboratki, bu kutubxona yoki internetdan ma'lum bir reja asosida foydalanishdir².

Zamonaviy chet tilini "loyiha" usuli asosida o'rganish yuqori baholanadi.

Bundan tashqari «loyiha» so'zini munozara, kelishuvlarga yo'naltirilgan va o'rgatish va o'rganishda dars markazida o'quvchi turgan shakli sifatida qabul qilinadi. Shu ma'noda ushbu tushuncha Yevropa davlatlarida o'tgan asrning oxirgi o'n yilliklaridan boshlab qo'llanila boshlagan bo'lsa, bizning mamlakatimizda esa ushbu

ma'nodagi "loyiha" so'zi butunlay yangi ma'noda qo'llangan, desak yangilashmaymiz. Loyiha usuli darsning alohida shakli sifatida, o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan birgalikda rejalashtirilib, ma'lum bir maqsadga yo'naltiriladi. Faqatgina nazariy emas, balki amaliy jihatdan ham no'an'anaviy darslardan farqlanadi. Loyiha darsi bu faol o'rganish demakdir va o'quvchilarning o'zlari bu jarayonda shaxsiy tajriba orttiradilar. O'qituvchi esa bunda yordamchi, qo'shimcha materiallar taklif qiluvchi va guruh ishlari jarayonining moderatori vazifasini o'taydi. Loyiha darsning mazmuni guruhlar tomonidan erkin tanlanadi, tizimlashtiriladi, uslubiy jihatdan amalga oshirilishi va materiallar tayyorlash bir-biriga muvofiqlashtiriladi va vaqtini belgilash erkin amalga oshiriladi. Loyiha darsni erkin o'rganishning oliy shakli deb ham tushunish mumkin. Sinf yoki o'quv binosini tark etish, ma'lum belgilangan joylarda amalga oshirilishi-bu loyiha darsning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlaridan biridir. Chunki o'quvchilar ongli ravishda o'zlarining shaxsiy o'quv jarayonlari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladilar.

Loyihaga yo'naltirilgan darslar Pestolotsi ta'biri bilan aytganda, "Bosh, yurak va qo'l bilan o'rganish" demakdir.

Muvaffaqiyatli natijani kafolatlash uchun esa ma'lum bir metodlar, ya'ni ko'nikmalar, malakalar va texnik ko'rinishlari bilan birgalikda amalga oshirish talab etiladi. Bugungi kunda yilda bir marta, ayniqsa, Yevropa davlatlarida loyiha kunlarini o'tkazish odat tusini olgan.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, loyiha darslarini boshlang'ich sinflardayoq o'tkazish foydadan holi emas. Quyi sinflarda loyihaga yo'naltirilgan darslar fundamentining bir qismi sifatida o'quvchilarga mustaqil matnlar tuzish va ma'lum bir mavzularga oid ma'lumotlar to'plash imkoniyatini beradi va o'rgatadi.

Har bir boshlang'ich chet tili darsliklari bir xil mavzular bilan boshlanadi. Masalan: O'quvchilarning ism-shariflari, o'zini va do'stlarini tanishtirish texnologiyalari va so'ngra maktab, oila, do'stlar, bayramlar va bo'sh vaqt mavzulari o'rin oladi. Loyihaga yo'naltirilgan darslarni tashkillash uchun shunday o'quv metodik qo'llanma "Mitmachbuch" (Birga bajarish kitobi) yaratildi³.

Bu kitob chet tili o'rganishning boshlang'ich etaplaridayoq, tilni kreativ, avtonom va erkin loyiha usulida o'rganishni o'rgatadi.

Masalan: rojdestvo (Weihnachten), pasxa (Ostern), Martin kuni (Martinstag), Nikolaus oqshomi (Nikolausabend), muqaddas

¹ Dieter Paul. Projektarbeit in den Fremdsprachenunterricht. – Bonn: Langenscheidt, 2001.

³ Diethelm Kaminiski. Literarische Texte in der Unterrichtspraxis. München-2004.

² Dewey/Klipatrik. Typhusprojekt. München-2003

uch shox kuni (Dreikönigstag) Navro'z bayrami, Mustaqillik bayrami, 8-mart xalqaro Xotin-qizlar kuni, Hayit bayrami kabilar.

Mazkur urf-odat yoki bayramlarni o'qituvchi doskaga yoki plakatga yozadi va o'quvchi/talabalardan qaysi urf-odat yoki bayramlarni o'rganishni xohlashlarini so'raydi. Qaysi urf-odat yoki bayramlarga qiziqishlariga qarab turib, o'qituvchi o'quvchi/talabalarni guruhlariga bo'ladi. Qiziqishlariga qarab guruhlariga bo'lganlari uchun guruh a'zolari teng bo'lmisligi mumkin.

Dastlabki bosqichda guruhlarda o'quvchi/talabalar o'z ishlarini rejalashtiradilar, so'ngra darslikdan tashqari tanlangan mavzulari bo'yicha atrofficha ma'lumotlarni qidirish uchun bibliotekaga yoki internetdan ma'lumotlarni qidirishni kelishib oladilar.

Ikkinchi bosqichda o'quvchi/talabalar to'plangan urf-odat yoki bayramlarga oid ma'lumotlari asosida taqdimotga tayyorgarlik ko'radilar. Urf-odat yoki bayramlarga oid ma'lumotlarni batafsil o'qishlari, o'rganishlari va ma'lumotlardagi yangi so'zlarni ma'nosini tushunishlari lozim bo'ladi. Taqdimotni turli xil ko'rinishlarda tayyorlashlari mumkin.

Masalan, plakatlarda taqdim qilish, suratlar, rasmlar yoki videolavhalar tayyorlash, sahnalashtirish yoki video proyektordan foydalangan holda taqdimot o'tkazish.

Uchinchi bosqichda o'quvchi/talabalar o'z taqdimotlarini namoyish qiladilar. Har bir guruh taqdimotidan so'ng olqishlanib turilishi, guruh a'zolari mehnatlarining natijalarini e'tirof etilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

So'nggi bosqichda guruh taqdimotlari o'qituvchi va guruh a'zolari bilan birgalikda plenumda muxokama etiladi. Har bir guruh loyiha ishlari qanday o'tganligi, qanday kamchilik yoki muammolarga duch kelganliklari, nimalar ular uchun oson bo'lganligi yoki nimalar murakkab bo'lganligi, guruh ishlarida do'stona muhit vujudga keldimi yoki qandaydir kelishmovchiliklar yuzaga keldimi kabilar haqida atrofficha muhokama qilinadi.

Quyidagi misolda esa tili o'rganilayotgan mamlakatning urf-odatlariga oid ma'lumotlarni faol va eng muhimi birgalikda interfaol usulda o'rganish mumkin. Gyote institutining "Inter Nations" nashriyoti tomonidan tayyorlangan "Germaniya Federativ Respublikasi-jonlilik, hazil - mutoyiba va ko'p qirralilik" sarlavhasi ostidagi posteri afsuski juda ko'p mamlakatlarning oliygohlarida, malaka oshirish institutlarida va maktablarda devor bezagi yoki dekoratsiya obyekti sifatida ishlatilmoqda⁴.

Poster bilan ishlash uchun metodist olimlar M. Xodjavey va M. Qahhorovalar quyidagi misollarni taqdim qiladilar.

1. So'z ustida ishlash bo'yicha o'quvchilarga posterdan umumiy ma'noni anglatgan so'zlarni beramizki, o'quvchilar shu tushunchalarga mos so'zlarni posterdan ajratib olishlari lozim. Masalan, bayramlar, yeguliklar, hayvonlar, ramzlar, mashhur kishilar, yil fasllari, kiyim - kechaklar.

2. "Men kimman?" savoli orqali o'quvchi o'zi o'ylagan biror mashhur kishi, yani biror bayramning qahramoni bo'lishi mumkin. U o'quvchilarning savollariga "ha" yoki "yo'q" - deb javob berib turadi. Yoki buni aksincha ham olib borish mumkin. O'quvchining o'zi posterdagi o'sha shaxs sifatida boshqalar topgunga qadar hikoya qilaveradi.

3. "Men ko'rayotgan narsani sen ko'rmayapsan" o'yinida o'quvchi posterdan bayramlarga oid biron bir rasmini tanlaydi. Boshqa o'quvchilar tomonidan berilgan savollarga "ha" yoki "yo'q" deb turadi. To'g'ri javob topilgunga qadar o'yin davom etadi.

O'tgan asrning 50-yillaridan boshlab juda qo'p rivojlangan mamlakatlarning ayniqsa, Yevropa mamlakatlari maktablarining jismoniy tarbiya yoki sport darslarida "To'garaklarda shug'ullanish" nomi ostida ma'lum bir belgilangan vaqt ichida bekatlarda turli xil sport turlari bo'yicha ko'nikma va malakalarini rivojlantiruvchi mashg'ulotlar o'tkazilib kelina boshlandi. Bunday mashg'ulotlarda o'qituvchi moderator, maslahatchi va yordamchi vazifasini o'tadi. O'rganishning o'yinli, muzokarali va yaratuvchanlik harakteriga ega bo'lgan bu metodni boshqa fanlarda qo'llash fikri chet tili darslariga ham kirib keldi va o'tgan asrning 80-yillaridan boshlab bekatlarda o'rganish metodi muvaffaqiyatli qo'llanila boshlandi. Mamlakatimizda chet tili darslarida bu metodni qo'llashga harakatlar Toshkentdagi Gyote instituti tomonidan tashkillangan o'quv seminarlarida nemis tili o'qituvchilariga chet tili o'rganishda

til o'rganuvchilarning mustaqil ishlashlari uchun samaradorlikni oshirishda muxim rol o'ynashi xaqida targ'ib qilina boshlandi.

Bu metodda ham projekt metodi singari darsni o'quvchi/talabalarining o'zlari rejalashtiradilar, bajaradilar va natijalarini xulosalaydilar.

Har bir bekatga alohida turli topshiriqlar berilishi sabab til o'rganuvchilar bir xil vaqt oralig'ida mustaqil ravishda rejalashtirib, natijalarini xulosalaydilar.

O'qituvchi bekatlarda o'rganish metodida avvalo ma'lum bir mavzu asosida turli topshiriqlar bo'yicha ko'rsatmalar tayyorlaydi. Har bir topshiriq ham bir necha bosqichdan iborat bo'lishi mumkin. Dars boshlanishidan oldin o'qituvchi o'quv xonasini guruhlarda ishlashga mos holda shunday joylashtirishi lozimki, o'qituvchi guruhlar atrofida bemalol nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'lsin. Bekatlarda ishlashni boshlashdan avval o'qituvchi til o'rganuvchilarni ma'lum bir metod asosida guruhlariga bo'lib, har bir bekatlarda o'qituvchi tomonidan tayyorlab qo'yilgan topshiriqlarni va bekatlarda ishlash qoidasini birma-bir tushuntirib chiqadi. Metodist olimlar M. Xodjavey va M. Qahhorovalar bekatlarda ishlash quyidagi tartibda o'tishini "masalan, har bir bekatda ishlash soat strelkasi bo'ylab harakatlanishini, har bir bekatda ishlash ma'lum bir daqiqa davom etishini, bekatlardagi topshiriqlarni tartib asosida bajarishlari lozimligini, faqat yozma topshiriqlarni bajarib xona devorlariga, maxsus ko'chma doskaga (Pinnwand) yoki deraza tokchalariga osib qo'yishlarini, keyingi bekatga o'tishlaridan oldin topshiriqlarni yana tartibli joylab qo'yishlarini va bekatlarda ishlash nihoyasiga yetganida boshqa guruhlarning yozma natijalarini o'qishlari lozimligini uqtirib o'tadi.⁵

Til o'rganuvchilar guruhlarda ijtimoiy shakllarining qaysi turidan foydalanishlarini o'zlari belgilashlari mumkin. Masalan, yakka holdami, juftlikdami yoki guruhdami. Lekin xorijiy mamlakatlarning Germaniya, Fransiya ta'lim muassasalarida olib borilgan videoroliklarda kuzatishimizcha ko'p hollarda til o'rganuvchilar bekatlarda ijtimoiy shakllardan guruh ishlaridan foydalanayotganlarini ko'rishimiz mumkin. "Bekatlarda o'rganishda o'qituvchi o'quvchi/talabalarining bilim darajalarini, ularning shu fan bo'yicha tajribalarini, qiziqishlarini yoki yoshlarini e'tiborga olishi lozim. Bekatlarda o'rganish mashqlarini o'qituvchi darsliklarda berilgan badiiy yoki oddiy matn mashqlariga muqobil ravishda o'zi ijodiy yondoshgan holda tayyorlaydi."

Haqiqatdan ham o'qituvchi til o'rganuvchilarning qiziqishlarini, yoshini va bilim darajalarini hisobga olmasa yaxshi samara bermasligi mumkin.

O'qituvchi har bir bekatni raqamlashi yoki ma'lum bir belgi yoki ramz qo'yishi kabilar belgilangan vaqtdan so'ng bekatlarni soat strelkasi bo'ylab almashtirish imkoniyatini yengillashtiradi. Raqamlash, ma'lum bir belgi qo'yish bekatlarda ishlash natijalarini xulosalashda yangilishmaslikni oldini olishda va oson kechishini ta'minlaydi. Bekatlarda o'rganish metodi bir mashg'ulot doirasida davom etmasdan balki, bir necha o'quv mashg'ulotlari doirasida davom etishi mumkin. O'qituvchi ma'lum bir bekatni "dam olish bekat" deb nomlab, unda o'quvchi/talabalar uchun qiziqarli bo'lgan mavzuga mos o'yinlarni ham rejalashtirishi mumkin. "Dam olish bekat" deb nomlangan bekatda til o'rganuvchilar berilgan topshiriqlarni boshqa bekatlarga qaraganda nisbatan tezroq va osonroq bajarishlari kuzatiladi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek bekatlardagi topshiriqlarni bajarishdan oldin o'qituvchi til o'rganuvchilarga har bir bekatdagi topshiriqlarni batafsil tushuntirib berishi lozim. Aks holda bekatlarda ishlash jarayonida turli tushunmovchiliklar kelib chiqishi mumkin.

"An'anaviy chet tili darslarida o'qituvchi dars mazmunini tarqatuvchi, nazoratchi va xatolarni tuzatuvchi sifatida markaziy o'rinda tursa, bunga qarshi o'laroq bekatlarda o'rganish metodida o'qituvchi tashkiliy va vazifasi jihatidan mutloq keyingi o'rinda turadi. O'qituvchi faqat moderator, yordam beruvchi va o'quv jarayonini kuzatuvchi vazifasini o'taydi." O'qituvchining xatolarni tuzatuvchi, yordam beruvchi, tushuntiruvchi vazifalari butunlay o'zgarib, uning bu vazifalari qachonki til o'rganuvchilar tomonidan yordam so'ralgandagina namoyon bo'lishi ko'zga tashlanadi.

Natijalar. Yuqorida bekatlarda ishlashning til o'rganishdagi ahamiyatini ko'rib o'tganimizdek, nemis urf-odatlarini yoki o'zbek

⁴ Diethelm Kaminiski. Literarische Texte in der Unterrichtspraxis. München-2004.

⁵ Xodjaev M., Qahhorova M. M..Chet til o'qitish metodikasi.Toshkent-2012.

urf-odatlarini nemis tilida bekatlarda qo'llash usuli orqali o'rganish yaxshi samara berganligini o'z tadqiqotlarimizda kuzatdik.

Ma'lumki, hozirgi zamonaviy jahon uslubshunosligida o'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, bekatlarda ishlash usulini o'tilgan mavzuni yanada mustahkamlash, uzoq vaqt davomida til o'rganuvchilarning yodida saqlash uchun qo'llaniladi.

Biz umumiy o'rta ta'lim maktablarining nemis tili darsliklarini tahlil etganimizda, ularda urf-odat mavzusiga bag'ishlangan bir qator matnlar va ularga doir mashq va topshiriqlar berilganligini tadqiq etdik. Masalan, 2-sinf nemis tili "Deutsch mit Spaß" darcligining 9-bobi "Die Feiertage"⁶ (bayram kunlari) deb nomlanib, unda tug'ilgan kun (Mein Geburtstag), tug'ilgan kunga taklif qilish odatlari (Einladung zum Geburtstag), ayollar bayrami (Der Frauentag), rojdestvo (Weihnachten) bayramlari o'quvchilar yoshlariga mos ravishda dastlabki tushunchalar "Wann hat deine Freundin /Freund Geburtstag?" (Qachon dugonang/do'stingning tug'ilgan kuni?), "Ich habe heute Geburtstag. Ich mache eine Party. Kommst du?", (Bugun mening tug'ilgan kunim. Men bir kecha qilmoqchiman. Kelasan-mi?) "Gut, ich komme. Danke für die Einladung" (Yaxshi, men boraman. Rahmat taklif uchun), "Was für ein Tag ist heute?" (Bugun qanaqa kun), "Ich schenke meiner Mutter schöne Blumen" (Men onamga chiroyli gullar sovg'a qilaman), "Die Kinder schmücken den Tannenbaum", „Alle Kinder bekommen Geschenke“ (Hamma bolalar sovg'alar oladilar) kabilar berib o'tiladi. 4-sinf nemis tili "Deutsch" darcligining 13-bobi "Feste und Feiertage" (Bayramlar va bayram kunlari) deb nomlanib, unda "Wir feiern Navrus", "Osterfest", "Mein Lieblingsfest" kabi mavzular o'rin olgan. 8-sinf nemis tili "Deutsch" darcligining 9-bobi (Lektion 9, 75-82- saxifalar) "Feiern im Jahresrhythmus" ("Yil davomida o'tkaziladigan bayramlar") deb nomlanib, unda nemis xalqida nishonlanadigan bayramlar, urf-odatlar o'quvchilar yoshiga, bilim darajasiga mos ravishda tanlab olingan. Ularda yangi yil (das Neujahr, Silvester), pasxa (Ostern), nemis birlashgan kuni (die deutsche Einheit), muqaddas Martin bayrami (das Fest des heiligen Martin) bayramlari, Nikolaus oqshomi (Nikolausabend), xosil bayrami (Fruchtbarkeit), uch shox kuni (Dreikönigstag), AVS xavfsizligi (ABC-Schützen) odatlariga oid matnlar, mashq va topshiriqlar va shuningdek o'quvchilar tomonidan o'zlarini kreativ yondoshgan xolda o'zbek bayramlari yoki urf-odatlarini nishonlashlari haqida topshiriqlar o'z aksini topgan.

Muhokama. Xalqlar madaniyati, urf-odat, an'analari o'rgatishga oid masalalar doimo chet til o'qituvchilari o'rtasida dolzarb va munozarali bo'lgan. Yuqorida berilgan urf-odatlariga tegishli matnlarga o'qituvchi tomonidan "Bekat"larda ishlash usulini qo'llash mumkin. Bunda o'qituvchi ijodiy yondoshgan holda mavjud bekatlarga savolliklar, topshiriqlar tayyorlashi lozim. Masalan, o'tilgan mavzuga mos ravishda yangi so'zlarni tartibli joylashtirishga, urf-odatlariga xos maqol va matallarni mazmun mohiyatini tushunishga doir mashqlar tayyorlashi, sahna ko'rinishiga doir va eng sevimli bayramlari haqida topshiriqlar tayyorlashlari lozim.

Quyida biz "Bekat"larda ishlash usuliga doir umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinf nemis tili darsligining Lektion 9 da berilgan "Feiern im Jahresrhythmus"⁷ ("Yil davomida o'tkaziladigan bayramlar") mavzularini mustahkamlash uchun mazkur tavsiyani ko'rib o'tmoqchimiz.

Lektion 9 da mavzuga yo'naltiruvchi rasmiy kollajlar, yil davomida o'tkaziladigan urf-odat yoki milliy bayramlariga oid kichik matnlar, o'zbeklarning eng muhim bayramlarini gapirtirishga doir mashqlar, rasmiy hikoyalar, urf-odatga ko'ra bayramlarda kiyiladigan kiyimlar, bayramlarda pishiriladigan taomlarni aks ettiruvchi turli matnlar va oddiydan murakkabga yo'naltirilgan topshiriqlar va mashqlarni ko'rishimiz mumkin. Shu Lektion ni mustahkamlash uchun "Bekat"larda ishlash usulini shunday o'tkazish mumkin.

Bekat 1. (Station 1.)

1.1. Nima bir-biri bilan mos keladi? Tartibli joylashtiring! (Was passt zusammen? Ordnen Sie zu!)

1. Silvesternacht a. gehen viele Kinder mit ihren Eltern

und den leuchterden Laternen in der Hand durch die Strassen

2. Ostern b. Tausende Deutsche feierten an diesem Tag auf beiden Seiten des Brandenburger Tors
3. Martinstag c. Ein grosses Fest feiert man im Frühling
4. die deutsche Einheit d. lustig und laut, mit Knallern und Raketen.
5. ABC-Schützen e. singen vor der Häusern die Stern-singer
6. der Dreikönigstag f. bekommen zur Einschulung ein Geschänk
7. das Maibaum g. stellen die Kinder Schuhe vor die Tür.
8. Nikolausabend h. wird im Süden als Zeichen der Fruchtbarkeit aufgestellt.

12 3 4 5 6 7 8

1.2. Quyidagi maqolning ma'nosini nima? (Was bedeutet das folgendes Sprichwort?)

• Andre Länder, andere Sitten (Har bir mamlakatning o'z urf-odati bor)

1.3. Sizning ona tilingizda urf-odatlariga doir maqollar bormi? (Gibt es solche oder andere Sprichwörter zu "Sitten und Bräuche" in Ihrer Muttersprache?)

Javobini devorga osing! (Hängen Sie das Ergebnis an die Pinnwand!)

Birinchi bekatning birinchi savoliga javob (Lösungen zur Station 1)

12 3 4 5 6 7 8
D c A b F E H
G

Bekat 2. (Station 2.)

"Esda saqlab" qolish o'yinini o'ynang. (Spielen Sie das Spiel "Vokabel-Memory")

Bu bekatda o'yin qoidasi quyidagicha tasvirlanadi. Kartochkalarning bir tomoniga so'zlar va boshqa kartochkalarning bir tomoniga so'zlarning izohlari yoziladi va orqa tomoni bilan bekatdagi stol ustiga qo'yiladi. Bekatga tashrif buyurgan guruh a'zolarining har biri navbat bilan so'z yozilgan kartochka va izohli so'zlardan bittadan tortadilar. Agar so'z va uning izohi mos kelmasa yana kartochkalarni stol ustiga qo'yadi. Mos kelgan kartochkalarni har bir guruh a'zosi o'z oldiga to'playdi. Guruhning a'zolari kartochkalarning o'rnini yodda saqlashga xarakat qilishi lozim. Ko'p juft kartochkalar to'plaganlar g'olib hisoblanadi.

Sitte Das Pflanzen gut darauf wachsen können.

Erfolg - In einem Gebiet etw., das man bei bestimmten Gelegenheiten gewöhnlich ist, weil es Tradition ist.

Schmücken Die Verhaltensweisen, die e-e bestimmte Gesellschaft traditionell angenommen hat.

Brauch - Das positive Ergebnis, das man haben wollte

Fruchtbarkeit etw./sich schöner machen, indem man schöne Gegenstände hinzufügt bzw. trägt: e-n Tisch mit Blumen, e-n Weihnachtsbaum mit Kerzen u. Kugeln, sich mit Ketten.

Blamieren - Ein Wissen od. Können, das man nicht theoretisch aus Büchern, sondern in der Praxis bekommt.

Erkennen - Ein Wissen od. Können, das man nicht theoretisch aus Büchern, sondern in der Praxis bekommt.

Erfahrung - j-n in Verlegenheit bringen od. lächerlich machen.

⁶ M.S.Dadahodjayeva und andere.Deutsch mit Spass 9. Toshkent-2016.

⁷ M.S.Dadahodjayeva und andere.Deutsch mit Spass 7. Toshkent-2016

Kochbuch - j-n / etw. so deutlich sehen, dass man weiss, wen od. was man vor seinen Augen hat.

Ikkinchi bekatning javobi (Lösung zur Station 2)

Sitte - Das Pflanzen gut darauf wachsen können.

Erfolg - Das positive Ergebnis, das man haben wollte

Schmücken - etw./sich schöner machen, indem man schöne Gegenstände hinzufügt bzw. trägt: e-n Tisch mit Blumen, e-n Weihnachtsbaum mit Kerzen u. Kugeln, sich mit Ketten.

Brauch - In einem Gebiet etw., das man bei bestimmten Gelegenheiten gewöhnlich ist, weil es Tradition ist.

Fruchtbarkeit - Das Pflanzen gut darauf wachsen können.

Blamieren - j-n in Verlegenheit bringen od. lächerlich machen.

Erkennen - j-n / etw. so deutlich sehen, dass man weiss, wen od. was man vor seinen Augen hat.

Erfahrung - Ein Wissen od. Können, das man nicht theoretisch aus Büchern, sondern in der Praxis bekommt.

Kochbuch - Sammlung, in der man das Essen zubereiten lernt.

Bekat 3 (Station 3)

Wählen Sie ein Fest aus den Texten und führen Sie ein Rollenspiel durch. (Matnlardan bir bayramni tanlang va sahna ko'rininshi tayyorlang.)

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" T. 2017.

2. Xodjaev M., Qahhorova M. M.. Til o'qitish metodikasi va ta'lim texnologiyalari. Toshkent-2014

3. Dieter Paul. Projektarbeit in den Fremdsprachenunterricht. – Bonn: Langenscheidt, 2001.

4. Xodjaev M., Qahhorova M. M..Chet til o'qitish metodikasi.Toshkent-2012.

5. Dewey/Klipatrik. Typhusprojekt. München-2003

6. Jabborov I., O'zbek xalqi etnografiyasi, T., 1994;

Xulosa. Biz "Bekat" larda ishlash usulini qo'llash orqali o'tilgan mavzuni uzoq vaqt til o'rganuvchilarning xotiralarida saqlanishini va dars samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynashini kuzatdik. Yuqoridagi bir qator metodist olimlarning izlanishlari va tadqiqotlaridan kelib chiqib, biz nemis tili darslarida urf-odatlarini loyiha va bekatlarda ishlash usuli orqali o'rganish qanday samara berishi haqida izlanishlar olib bordik. Tadqiqotlarimizdan ma'lum bo'ldiki, loyiha darslarini olib borish uchun dastlab o'qituvchi o'quvchilarga darsda loyiha darsini qo'llamoqchi ekanligini va loyiha darslarini qanday o'tkazish haqida ma'lumotlar berib o'tishi kerak bo'ladi. So'ngra nemis va o'zbek urf-odatlarini yoki bayramlaridan darslikka kiritilgan bir nechtasini tanlab olinadi, va shu orqali o'quvchilarda madaniy kompetensiyalarni shakllantirish yo'lga qo'yiladi. Xulosa o'rnida shuni ham aytish mumkin-ki, poster bilan turli xil interfaol usullarni amalga oshirish mumkin. Bu esa har doimgidek o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'ladi. Milliy urf-odatlarimizni o'rganishga bag'ishlangan darsni shu tariqa qiziqarli qilib o'tkazish mumkin.

O'zbek va nemis urf-odatlarini bayramlarini loyiha usulida o'rganish orqali o'quvchi/talabalar atroficha bilim va tajribalarga ega bo'ladilar va olingan bilimlarni uzoq vaqt xotiralarida saqlay oladilar. Biz bu usullarni chet til o'rganishda muhim ahamiyatga ega usul deb hisoblaymiz.

7. Diethelm Kaminiski.Literarische Texte in der Unterrichtspraxis. München-2004.

8. M.S.Dadahodjayeva und andere.Deutsch mit Spass 7. Toshkent-2016

9. M.S.Dadahodjayeva und andere.Deutsch mit Spass 9. Toshkent-2016.

10. Natalja Suchanowa, Ludmila Uljanowa va boshqalar.Assalom, Deutsch 8. Toshkent-2009.

11. Chet tili o'qitishning modellari haqida. D. Yusupova. Farg'ona davlat universiteti, 125-125, 2023

12. Main Reading Types and Approaches to Traditional Text Analysis used in German Language Classes.